



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!



1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



2023-yil 21-sentabr, payshanba,

112 (23.833)-son

KUN
HIKMATI

Hayotni
anglashdan
ko'ra uni
o'zgartirish
osonroq

/twitter.com/zarafshon_vs_uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 78-SESSIYASIDAGI NUTQI

Hurmatli rais janoblari!

Hurmatli Bosh kotib janoblari, delegatsiyalar rahbarlari, xonimlar va janoblar!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasing bugungi sessiyasi xalqaro munosabatlardan tizimida fundamental o'zgarishlar yuz berayotgan bir sharoitda bo'lib o'tmoqda.

Jahon miqosida ishonch inqirozi kuzatilmoqda. Global xavfsizlik instituti faoliyatidagi muammolar va xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish kuchaymoqda. Va bularning barchasi keng ko'lamdagi keskinlik ortishiga sabab bo'lmoxda.

Geosiyoq qarama-qarshiliklari tufayli savdo, investitsiya va innovatsiya sohalarda erkin almashish yo'lida yangi to'siqlar vujudga kelmoqda. Hatto iqlim o'zgarishlari, ochlik va tengsizlik qarshi kurash singari butun bashariyati taqdiringa daxlidor bo'lgan masalalarda ham o'zaro muloqot izdan chiqqani sezilmoqda.

Bunday murakkab sharoitda amaliy hamjihatlik va hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mayjud ziddiyatlardan yuqori qo'yan holda, mamlakatlarni jipslashtirish g'oyasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Biz o'tgan yili umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga qaratilgan "Samarqand birdamlik tashabbusi"ni ilgari surdik. Asosiy maqsadimiz mamlakatlarni va xalqlarimizning bugungi kuni va istiqboli uchun mas'uliyatni har tomonlama chuhur anglosh, ochiq va konstruktiv hamkorlikka tayyor barcha tomonlarni global muloqotga jalb qilishdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusi bilan kelgusi yil Kelajak sammiti o'tkazilishi xalqaro va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishga, Tashkilotimizning ta'siri va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Muhtaram anjuman ishtirokchilar!

Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistoni barpo etish siyosatini qat'i yavom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz "Inson qadri va manfaatlari uchun" degan ezuq g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil ilgari bormoqda.

Joriy yil aprel oyida milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalişlarini belgilab beruvchi yangilangan Konstitutsiya bo'yicha O'zbekiston tarixida birinchi marta umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. Referendumda ovoz bermanlarning 90 foizdan ziyodi ushbu chikanam xalo Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatlashdi. Shu taripa islohotlarimizning ortga qaytmaydigan muqarrar tus olishi ta'minlandi.

Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik.

Mana shunday huquqiy asosda "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un bo'lib, biz o'z zimmamizga oлган barcha majburiyatlarni to'la va qat'iy bajarmoqdamiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Izchil davom etayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti, global tahdidlarga qaramasdan, barqaror o'sish sur'atlarni namoyon etmoqda. So'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bar yarim martadan ortiq ko'paydi. Bizning bosh maqsadimiz – 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir.

Iqtisodiyotimizni liberallashtirish yo'lidi yana bir ustuvor vazifamiz – yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to'laqloni a'zo bo'lishdir.

Kalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag' allik ikki barobarga kamaydi. Biz 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirishni reja qilganimiz. Aholini ichimlik suvi, sog'liqni saqlash, ta'limga boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash ko'lamini bir necha bor oshirishni belgilaganamiz.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinalarini yaratish va ijtimoiy himoya global akselerator" borasidagi

tashabbusni qo'llab-quvvatlaymiz. Mazkur tashabbus doirasida tajriba almashish uchun 2024-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidagi "Ijtimoiy himoya: barqaror tarraqqiyot sari yo'l" butunjalon konferensiysini yurtimizda o'tkazishni taklif etaman.

Hurmatli sammit ishtirokchilar!

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlari ni himoya qilish bo'yicha e'tiborga loyiq natijalariga erishidik. Mamlakatimizda majburiy va bolalar mehnatiga to'liq barham berildi.

Bir asr mobaynida O'zbekistonda millionlab insonlar paxta terimiga majburiy ravishda jalb etib kelindi. Har yili sentyabr oyidan dekabrgacha aholining asosiy qismi – o'qituvchi va shifokorlar, tadbirdorlar, ishchi va xizmatchilar, eng achinarlisi, maktab o'quvchilar va talabalar paxta terimiga safarbar qilin edi. Buning natijasida o'zbek paxtasiga boykotlar e'lon qilingan, mamlakat esa yillar davomida "qora ro'yxat"larga kiritilgan edi.

Qat'i yordanamiz tufayli endi bularning barchasi o'tmishiga aylandi. Xalqimiz paxta qulligidan butkul ozod bo'ldi.

Yangi Konstitutsiyamizda majburiy mehnat taqiqlanishi kafolatlab qo'yildi va buning uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashni butun dunyo miqosida kuchaytirish zarur, deb hisoblayman. Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqda, bunga chek qo'yish imkonibor.

Xonimlar va janoblar!

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir.

Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limga kambag' allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz.

Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'limga tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limga qamrov 21 foizdan 70 foizga, olyi ta'limga esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030 yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliyoghoda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo yaxshi qo'shnichilik, barqarorlik, o'zaro hamkorlik va rivojlanish yo'lida bormoqda.

Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli O'zbekiston barcha qo'shnilarini bilan davlat chegaralarli, transport koridorlari va suvdan foydalanan bo'yicha muammolarni bartaraf etishga muvaffaq bo'lmoxda.

Mintaqa davlatlari o'tasida o'zaro savdo ikki yarim barobardon ziyod, qo'shma korxonalar soni esa besh marta o'sdi. Mintaqamiz iqtisodiy rivojlanish markaziga, Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan transport-kommunikatsiya ko'prigiga aylanib, unga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi – mintaqaga xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda.

Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirishmoqda va bu tuyg' ugorba kuchayib bormoqda.

Bizning naqaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarni ham umumiylar va mushtarakodir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo'limiz yo'q va bo'lishi ham mumkin emas!

Aminmalki, xalqaro hamjamiatning qo'llovi bilan Markaziy Osiyo birdamlik yo'lidan borishda davom etadi. Markaziy Osiyonini tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo'lib qoladi.

Muhtaram anjuman ishtirokchilar!

Aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo'lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro'yogba chiqarish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida yaqinda mintaqamiz davlatlari tomonidan Yoshlar siyosatining umumiylar yonalishlari haqidagi bitim imzolandi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

2023-yil 21-sentabr, payshanba,

112 (23.833)-son

Zarafshon.uz

Facebook

21-sentabr – SamDU kuni

MADRASAI OLIVADAN DORILFUNGACHA



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarixi buyuk olim Muhammad Xavofiy 1420-yilning 21-sentabrina 100 dan ortiq tinglovchilar oldida Klavdiy Ptolomey nazariyasi bo'yicha ma'ruza qilgan – Mirzo Ulug'bek madrasasi tashkil etilgan kundan boshlanan. O'sha kundan e'tiboran ish boshlagan Mirzo Ulug'bek madrasasida talabalar diniy bilimlar bilan bir qatorda algebra (al-jabr), geometriya (handasa), huquq (fiqh) va boshqa fundamental fanlardan saboq ola boshlagan edi.

Yozma manbalar va ilmiy izlanishlar Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug'bek madrasasining bevosita vorisi ekanligini tasdiqlaydi. Demak, joriy yilda Samarqand davlat universiteti tashkil topganiga 603 yil bo'ldi.

Ushbu madrasaga o'sha davrning eng ilg'or muallim va olimlari jalb etilgan. Muhimi, fandagi bu an'analar o'sha davrdan buyon davom etib kelyapti. Samarqand dorilfununi endilikda ham mintaqadagi eng nufuzli ilm maskanlaridan sanaladi.

Bugungi kunda Samarqand davlat universitetida 25 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda. Ularga 839 nafr professor-o'qituvchilar ta'lim bermoqda. Oly ta'lim dargohida 12 ta fakultet va 59 ta kafedra mavjud.

Elektron arxiv qanday bo'ladi?

Dunyo arxivchilari Samarqandda jam bo'ldi

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida MDH ishtirokchi davlatlari arxiv xizmatlari rahbarlari maslahat kengashining 19-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda maslahat kengashi a'zo davlatlari arxiv ishi rahbarlari, mutaxassislar, olimlar, jamoatchilik faollari va yoshlar ishtirok etdi.



Mazkur kengash 2004-yil 3-dekabrdar arxiv ishi bilan bog'liq dolzarb masalalarni hamkorlikda ko'rib chiqish, hujjat almashishdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida tashkil etilgan. Maslahat kengashi tarkibiga Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Armaniston, Rossiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi xir xizmatlari rahbarlari kiradi. O'zbekiston 2021-yil 24-fevraldan ushbu kengashga doimiy ishtirokchi sifatida qo'shildi va bu yilgi maslahat kengashiga raislik qilmoqda.

- Har ikki yilda o'tkaziladigan maslahat kengashidagi asosiy maqsad arxiv ishi sohasida tajriba almashish va elektron arxiv hujjatlarini tartibga keltirishdan iborat, - deydi "O'zarkiv" agentligi direktori o'rinosi Sherzod Sodiqov.

- Mazkur kengashga rasman a'zo bo'lganimiz arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha muammolarni hal etishga qaratilgan xalqaro anjumanlarda faol ishtirok etish, saqlash va foydalishini tashkil etish.

respublikada amalga oshirilayotgan ishlar sifatini xalqaro talablar va andazalar darajasiga ko'tarish imkonini beradi. Shuningdek, respublikamizdan tashqarida bo'lgan arxiv hujjatlarini aniqlash va ularning asl yoki elektron nusxalarini qaytarish masalalarini ijobiy va tezkor hal etishdagi jarayonlarni maqbullashtirish borasida bir qatori imkoniyatlarini yaratadi. Shunday imkoniyatlar sabab hozirda ushbu maslahat kengashida kutuzvchi maqomida ishtirok etish taklifi bilan chiqayotgan davlatlar soni ortmoqda. Xususan, bugungi kengashda Turkiya, Xitoy, Vengriya kabi mamlakatlardan vakillar yaratadi. Bugungi maslahat kengashi ishtirokchilari ayni shu jihatga ko'proq e'tibor qaratyapti.

Tadbir doirasida "Arxivlar va elektron hujjatlar: darr talabi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Konferensiya da 40 dan ortiq xorijlik ekspertlar qatnashdi. Soha mutaxassislarining elektron hujjatlarini jamlash, hisobini olib borish, saqlash va foydalishini tashkil etish.

Tadbir davomida O'zbekiston kinofotofono hujjatlarini milliy arxivining 80 yilligi munosabati bilan "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan kitob-albom hamda O'zbekiston Kinematografiya agentligi tomonidan Ali Hamroyev rejissoryligida tayyorlangan "Mangu lazhalar" hujjatli filmlining taqdimoti o'tkazildi.

S.MARDIYEV.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 78-SESSIYASIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ayni paytda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish, boshqa mintaqalarning ilg'or tajriba va yutuqlarini o'rganishdan manfaatdormiz.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantrishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etishni taklif etaman. Uning doirasida "Markaziy Osiyo yoshlarining kun taribi – 2030" dasturini ishlab chiqish maqsadiga muvoqiqdir.

Hurmatali delegatsiyalar rahbarlar!

Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilarlar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat.

Gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlarni olib bormoqdramiz. Jumladan, o'tgan yill olyigholarga qabul qilingan talabalarning 49 foizi qizlar tashkil etdi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetdi. Ayollar va voyaga yetmaganlarni zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilindi.

Biz "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdormiz. Birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yogha chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazishni taklif etamiz.

Hurmatali xonimlar va janoblar!

Hozirgi vaqtida dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilmoqda. Sayyoramiz miyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilma-xilik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaymoqda.

Ana shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fotasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalar dan biriga aylanmoqda.

Global muammo bo'lgan Orol fojasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlari darajasida harakat qilmoqda. So'nggi yillarda Orol dengizingin qurigan tubida 1,7 million hektar may-

donda qurg'oqchilikka chidamlari o'simliklardan iborat yashil hududlar barpo ettili. Bu sa'y-harakatlari-mizni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim.

Keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim gradusga ko'tarildi. Bu – dunyodagi o'rta-cha isishidan ikki karra ko'pdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolish ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda.

Agar o'z vaqtida ta'sirchan choralarini ko'rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlaymiz. Markaziy Osiyo suvni tejayidigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jaib etish va tatbiq qilish tarafadormiz.

Biz mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlikni yo'lg'a qo'ymoqdamiz. Bunday sheriklik manfaatlarni qo'shib berik mos bo'lib, qilim o'zgarishlari bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishiga qaratilgan. Bu borada "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etishni maqsadiga muvoqiq, deb hisoblaymiz.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahididlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo'lib o'tadijan xalqaro iqlim forumida muhokama qilishni taklif etamiz.

Shu o'rinda ta'kidlashni istardimki, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetikka ulushini keskin oshirish biz uchun strategik vazifa bo'lib qoladi.

Hurmatali yig'ilish ishtirokchilar!

Biz ekstremizm balosi tarqalishiga, yoshlarning radikallashuviga yo'l qo'ymaslik uchun birgalikdagi

harakatlarimizni kuchaytirishimiz zarur.

O'tgan yil mart oyida Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkilotining terrorizmga qarshi global strategiyasini Markaziy Osiyoda amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasiga qabul qilindi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Milliy strategiyamiz doirasida bir masalaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. U ham bo'lsa, ilgari ekstremizm g'oyalari ta'sirida bo'lgan shaxslarni sog'iom hayotga qaytarish va jamiyatga moslashtirish masalasidir.

Biz bu borada o'ziga xos tajriba orttirdik, besh marta "Mehr" insonparvarlik missiyasini o'tkazdim. Uning doirasida 550 nafardan ziyyod fuqarolar, avvalo, ayollar va bolalarni Yaqin Sharq va Afg'onistonida qurollari nizolar hududlaridan yurtimizga qaytardik. Ularning barchasiga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko'rsatildi.

Xalqaro jamoatchilik joriy yilning iyun oyida mana shu yerda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida mamlakatimizga olib kelgingan va yangi hayot boshlagan shaxslarning tarixini ularning o'zlaridan eshitidi.

Biz bu yo'nalishdagi harakatlarni davom ettirish va doimiy tajriba almashishni yo'lg'a qo'yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi shafedan urush hududlaridan qaytganlar bilan tizimli ishlash bo'yicha Mintaqaviy ekspertlar kengashini tuzishga qaratilgan amaliy qadamlarni tashladik.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi umumiy tahididlarga qarshi kurashda yanada birlashib, harakat qilishlari kerak.

Yana bir muhim fikrni ta'kidlashni istardim. So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashnayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Jahan miyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda YUNESKO shafeligidida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etishni taklif qilamiz.

Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, islomni ilm-ma'rifikat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ulug' alloma va mutafakkirlar vatanini ekani bilan haqlini.

ravishda faxlanamiz, Shunday buyuk olimlarning boy merosini o'rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqr olib berish maqsadida 2024-yil O'zbekistonda "Islam – tinchlik va ezzulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusini ilgari suramiz.

Hurmatali sessiya ishtirokchilar!

Xalqaro xavfsizlik Afg'onistonida jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu mamlakatda yangi vaziyat vujudga kelgan bo'lib, u afg'on masalasini hal etishda o'ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda.

Afg'onistonni o'z muammolari bilan buna yaroq'iz qoldirish – bu katta xato bo'ldi. Inkor qilish, yakalab qo'yish va sanksiyalar qo'llash oddiy afg'on xalqining ahvolini yanada og'irlashtirmoqda.

Afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmasli lozim, deb hisoblaymiz. Afg'onistonning muzlatilgan xalqaro aktivitarini bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz. Bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadigan, qo'shnilar va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatlari sheriklik uchun ochiq Afg'oniston kerak.

Men bugun ushbu nufuzli minbardan turib, dunyo hamjamiyatini Afg'oniston muammosini hal etish yo'lida birlashishga chaqiramiz. Bi borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida Afg'oniston bo'yicha birgalikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchani va konstruktiv pozitsiyani belgilash principial jihatdan muhim, deb hisoblayman.

Hurmatali rais!

Hurmatali anjuman qatnashchilar!

Biz barchamiz hozirgi tarixiy tub burilish pallasida kelgusi avlodlarga sayyoramizni qanday holda qoldirish haqida o'yashimiz lozim.

Mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishish mumkin. Bizga o'zaro ishonzch, bir-damlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko'proq zarur.

So'zimning yakunida O'zbekiston shu yo'lida Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlari va barcha davlatlar bilan keng ko'lamlari va uzoq muddatli sheriklikni chuqurlashirishga tayyor ekanini yana bir bor ta'kidamoqchiman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Mulohaza va taklif



IQTISODIYOT NIMA?

asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi.

Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ldi.

Birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekoliyga va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirish borish lozim bo'laadi. Bunda asosiy e'tiborni iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalananiga qaratish maqsadiga muvoqiq.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantrishga energiya resurslari qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarini barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish ko'zda tutilgan. Bunda iqlim va ekoliyga barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishish choralarini ko'rish ham muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Uchinchidan, atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekoliy toza texnologiyalarni yaratish orqali ekoliy toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo'laadi. Bunda texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mehanizmlarni rivojlantrishni amalga oshirish, yuqori samaradorlikka erishish uchun xorijiy davlatlar bilan ikki tomon-

yotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarini barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish ko'zda tutilgan. Bunda iqlim va ekoliyga barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishish choralarini ko'rish ham muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Beshinchidan, aholining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga va qaysi hududga mo'jallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi. Ushbu sohada davlat tomonidan rag'batlantrish mexanizmlarini, davlat-xususiy sheriqligini rivojlantrish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollaishirish maqsadga muvoqiq. Endi "yashil iqtisodiyot"ga o'tish yo'nalishlarni bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirib, ularning murakkab yo'nalishlarini joriy qilishga ko'maklashish zarur.

Oltinchidan, "yashil iqtisodiyot" sohasida, yuqori samaradorlikka erishish uchun xorijiy davlatlar bilan ikki tomon-

lama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash. Bunda "yashil iqtisodiyot"ni takomillashtirish bo'yicha tajribalar bilan o'rtoqlashish va shu sohaga yo'naltiriladi maqsadli investitsiyalari jaib qilish.

Tetinchidan, "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va uni rivojlantrish uchun shu sohada yuritadigan kadrlarni ham shakllantirish maqsadga muvoqiq. Mazkur yo'nalish bo'yicha ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantrish, yetakchi xorigiy ta'lim muassasalarini va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantrish o'ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, «yashil iqtisodiyot»dagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini ham yo'lg'a qo'yish.

Sakkizinchidan, tan olib aytish kerak, ayrim hollarda tabiatga va jamiyatga tiklab bo'limas darajada zarar yetkazilmoqda. Hududlarda, ayniqsa, yirik shaharlarda havo ifloslanishi bo'yicha holat toborha yomonlashib bormoqda. Bu bevosita aholining bu masalaga mas'uliyatsizlik bilan qarashi tutayli ro'y bermoda. Buni inobatga olib, ekoliyoga va atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar og'ir jinoyatlar toifasiga kiritilishi lozimligi ta'kidlandi. Bu bo'yicha Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi "Ekoliyga va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolati davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida qayd etildi.

To'qqizinchidan, mamlakatimizning barcha hududlarida atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarning yuksini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lg'a qo'yish lozim bo'imoqda. Chunki daraxtlar va butalar kesilishiha moratoriya e'lon qilingan bo'lishiga qaramay, 44 mingta yaqin qimmatbaho daraxt noqonuniga kesilgan. Oqibatda tabiatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilgan. 2022-yilda ekoliy qo'ylabzalari yuzasidan 27 holat bo'yicha jinoyi ish qo'z'atilgan. Biroq ularning barchasi bo'yicha yengil moliyaviy jarima jazozi qo'llanilgan, xolos. Bejis ekoliyoga va atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar og'ir jinoyatlar toifasiga kiritilishi ko'zda tutilgan.

Mamayunus PARDAYEV, Murod MUHAMMEDOV,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professorlari, iqtisodiyot fanlari doktorlari.



Adolatli va zamonaviy davlat

barpo etish asosiy maqsad

Davlat rahbarining tegishli farmoni bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiyada quyidagi asosiy g'oya-
lar aks ettirilgan:

barqaror iqtisodiy o'sish orqali
daromadi o'rtaqchadan yuqori bo'lgan
davlatlar qatoridan o'rinish;

aholi talablariga va xalqaro
standartlarga to'liq javob beradigan
ta'lif, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimi-
ni tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sha-
roitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va
zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va
xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Ahamiyatlari jihatida, strategiyaning
85-maqsadida sudning mustaqilligi-
ni kuchaytirish va suddagi ochiqlikni
ta'minlash orqali odil sudlovga eri-
shish darajasini oshirish eng ustuvor
maqsadlardan biri sifatida qo'yilmoq-
da. Va, bunda alohida vazifa sifatida
Jahon odil sudlov loyihasining Huquq
ustuvorligi indeksi bo'yicha 0,64 balni
to'plashga erishish belgilangan.

Birgina shu misolning o'zi xalq
xizmatidagi adolatli va zamonaviy
davlatni barpo etish qog'ozdag'i gap,
balanparvoz maqsad emasligini isbot-
lab turibdi.

Farmon bilan strategiyani amalga
oshirish va maqsadli ko'rsatkichlar-

ga erishish barcha davlat organlari
va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor
vazifa etib belgilandi hamda bu
bo'yicha ularning birinchi rahbarlariga
shaxsiy mas'uliyat yuklandi.

Asosiyasi, jarayon yuzasidan sama-
rali jamoatchilik nazoratini o'rnatish-
ga ham alohida ahamiyat qaratilgan.
Buning uchun "O'zbekiston – 2030"
strategiyasi ijrosining ta'minlanish
darajasi, unda belgilangan islo-
hotlarning sifatlari amalga oshirilishini
aholi tomonidan har bir maqsad va
undagi ko'rsatkichlar kesimida ba-
holash, ular yuzasidan o'z fikrlarini
qoldirish va tashabbuslar bildirish
imkoniyatini yaratuvchi onlayn portal
ishga tushirildi.

Har oyda baholash natijalari va
aholidan kelib tushadigan fikr-mulo-
hazalar umumlashtirilib, respublika
komissiyasiga taqdim etib boriladi.
Komissiya o'z navbatida har yarim yil-
da O'zbekiston Respublikasi Preziden-
ti axborot kiritadi.

Maqsad ulkan, unga eltuvchi yo'l
aniq, endi vaqt hammasiga oydinlik
kiritadi.

Begench ESHQUVVATOV,
fuqarolik ishlari bo'yicha
Samarqand shahar sudi
sudyasi.

Darvozamiz qarshisida tibbiyot punkti

Farzandlarimizning issig'i oshsa,
nima qilishimizni bilmay qolar-
dik. Tuman markaziga borish
uchun ulov muammo bo'lgani
uchun ularni yelkalab, 5-6 kilo-
metr olisda joylashgan qo'shni
mahalladagi qishloq vrachlik
punktiga borardik. Keksalar-
mizning qon bosimi oshib ketsa,
chaqirilgan tez yordam mashi-
nasining yo'liga soatlab ko'z
tikkan kunlarimiz bo'lgan.

Beshkuviliklar o'tmishini shunday xotir-
laydi. Bugungi kunda yaratilayotgan sha-
roitlar uchun shukronalar aytadi.

- Ko'pgina qiyinchiliklar ortda qoldi,
- deydi 75 yoshli onaxon Rahima Sulay-
monova. - Bugun darvozamizdan ko'cha-
ga chiqsak, qarshimizda mahalla tibbiyot
punkt. Ertalab kechgacha shifokor va
hamshiralar aholi xizmatida. Mo'jazgash
punktida bemorlar kunduzi yotib davolanshi
uchun ham sharoit yaratilgan. Kechalari
zarur bo'lsa, chaqirilgan tez tibbiy yordam
mashinalari ham 10-15 daqiqada yetib
kelyapti. Muhimi, shifokorlar bizning tibbiy

madaniyatimiz yuksalishiga ham yordam
berishayti.

- Ikki xonadan iborat tibbiyot punktimizda
zarur sharoitlar yaratilgan, - deydi shifokor
Gulnoza Lapasova. - Bu yerda men va ikki
nafar patronaj, bir nafar amaliyotchi hamshira
hududdagi 2270 nafar aholiga tibbiy xizmat
ko'satib kelyapmiz. Yilning har choragi-
da viloyat va tuman markazida faciliyat olib
borayotgan malakali tor ixtisosli mutaxassislar
tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar
o'tkazib kelinmoqda.

2022-yilda viloyat sog'liqi saqlash
boshqarmasi tomonidan Bulung'ur tumaniga
5 ta tibbiyot punkti uchun konteyner-
lari keltirildi. Ular tumanning Beshkuvi,
Chorbog', Xo'jamagzil, Nebo'sa va Oqtosh
mahallalariga o'rnatildi. Shuningdek, res-
publika Sog'liqi saqlash vazirligi tomoni-
dan kelitirilgan 6 dona konteyner G'o'bdin,
Lalmikor, Olmazor, Yangiobod va Mirzaqoq
mahallalariga joylashtirildi.

- Bu tibbiy punktlarni o'rnatish va atrofini
obodonlashtirish uchun tuman mahalliy
budgetidan 275 million so'm mablag'
ajratildi, - deydi tuman tibbiyot birlashmasi
boshligi o'rnibosari Najmuddin Qorjovov.
- Ularning o'rnatilishi va faoliyat bosh-
lashi olis hududlarda yashovchi aholining
uzog'in yaqin, og'irini yengil qildi. Birgina



misol, shu paytga qadar Qorovultepa ma-
hallasi ahli tibbiy xizmatga muhtoj bo'ladi-
gan bo'lsa, G'o'bdin mahallasidagi qishloq
oilaviy shifokorlik punktiga 12 kilometr,
tuman markazidagi tibbiyot muassasalariga
esa qariyb 30 kilometr yo'll bosib o'tishi
kerak bo'lgan.

To'iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

한국어



Koreys

TILINI
O'RGANAMIZ

Ikki davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari tufay-
li keyingi yillarda O'zbekiston va Janubiy Koreya
o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari to-
bora mustahkamlanib bormoqda.

Joriy yilning 12, 14, 16-sentabr kunlari Samarqand davlat iqtisodiy va servis instituti qoshidagi King Sejong markazida "Sejong madaniyat akademiyasi" tadbiri bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirda Koreya madaniyati bilan bevosita tanishuvchilar
uchun uch xil dastur tayyorlandi. Bular - zattotlik, hanji-koreys milliy
qog'ozini tayyorlash, shuningdek, K-beauty, ya'ni koreys go'zallik
darslari kabi yo'nalishlardi. Buning uchun Janubiy Koreya davlatlari
ushbu sohalar bo'yicha mutaxassislar taklif qilindi va o'quvchilar
to'g'ridan-to'g'ri Koreyaning milliy va zamonaviy madaniyati bilan
tanishib, uni yaqindan his qila olish imkoniyatiga ega bo'lishi.

- "Sejong madaniyat akademiyasi" tadbiri orqali o'quvchilar-
ning Koreya madaniyatiga qiziqishi juda yuqori ekanligining guvoh
bo'ldim, - deydi Samarqand Sejong markazi rahbari janob Lee
Jong Hyuk. - Mahalliy aholining shu darajadagi qiziqishi tufayli
nafaqat koreys tili, balki Koreya madaniyatini o'rganish imkoniyati
endilika bundan-da kengayib boraveradi.

Sejgong instituti butun dunyoda koreys tili va koreys madaniyati-
ni o'rgannoqchi bo'lgan o'quvchilar uchun Koreyaning Madaniyat,
sport va turizm vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinayotgan
tashkilot bo'lib, ayni vaqtida dunyoning 85 davlatida ushbu institut-
ning 248 ta markazi mavjud. Samarqand shahrida joylashgan Sejong
markazi Janubiy Koreyaning Woosok universiteti hamda Samarqand
davlat iqtisodiy va servis instituti bilan hamkorlikda 2022-yilning
fevral oyida rasmiy ravishda faoliyat yurita boshlagan edi.

Institut koreys tilini o'rganishga qiziquvchilarni taklif etadi.

Yormamat RUSTAMOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londor tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali quyidagi kafedralar bo'yicha bo'sh
lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

I. "Kompyuter injiniring" fakulteti
bo'yicha

1. "Kompyuter tizimlari" kafedrasiga:
- dotsent - 1 o'rin.

2. "Tabiiy fanlar" kafedrasiga:

- dotsent - 1 o'rin;

- katta o'qituvchi - 1 o'rin.

II. "Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasb ta'limi" fakulteti bo'yicha:
1. "Axborot ta'lim texnologiyalari"

kafedrasiga:

- dotsent - 1 o'rin.

2. "Tabiiy fanlar" kafedrasiga:

- dotsent - 1 o'rin;

- katta o'qituvchi - 1 o'rin.

III. "Telekommunikatsiya texnologiyalari
yoki kasb ta'limi" fakulteti bo'yicha:
1. "Axborot ta'lim texnologiyalari"

kafedrasiga:

- dotsent - 1 o'rin.

IV. "Telekommunikatsiya texnologiyalari
yoki kasb ta'limi" fakulteti bo'yicha:
1. "Telekommunikatsiya injiniring"

kafedrasiga:

- assistant - 1 o'rin.

3. "Axborot xavfsizligi" kafedrasiga:

- katta o'qituvchi - 1 o'rin;

- assistant - 1 o'rin.

4. "Tillar" kafedrasiga:

- katta o'qituvchi - 1 o'rin.

Tanlova qatnashish uchun quyidagi
hujjalatlar taqdim etiladi:

- filial direktori nomiga ariza;

Begech ESHQUVVATOV, fuqarolik ishlari bo'yicha
Samarqand shahar sudi sudyasi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot
bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial
idorasida marhum Kuvondikov Xam-

dullaga (2022-yil 6-iyulda vafot et-
gan) tegishli mol-mulk uchun meros
ishi ochilmoqda.

Manzil: Samarqand shahri Panjob
ko'chasi, 4-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot
bilan shug'ullanuvchi notarius Qur-

bonov Azizjon Ro'ziyevich notarial
idorasida marhum Kuvondikov Xam-

dullaga (2022-yil 6-iyulda vafot et-
gan) tegishli mol-mulk uchun meros
ishi ochilgan.

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial
idorasida marhum Arifov Dilyaver Rustemovichga (2023-yil 12-martda vafot
etgan) tegishli mol-mulk uchun meros
ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich
notarial idorasida marhum Karshiyev Zokirjon Qo'ziboyevichga (2015-yil
11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk
uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial
idorasida marhum Arifov Dilyaver Rustemovichga (2023-yil 12-martda vafot
etgan) tegishli mol-mulk uchun meros
ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

Shu munosabat bilan shug'ullanuvchi
notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqurovich notarial idorasida marhum
Kurbanov Sabirga (1999-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

</

Mulohaza uchun mavzu



RO'ZG'OR – AYOLNING IJODIY "ASARI"

Yozning jaziramasidan qizigan yer hovurini, changini bosish maqsadida ko'p qavatlari uy yo'laklariga har kun kechqurun suv sepiladi, supuriladi. Xotin-xalajning bari ko'chada. Uy oldidagi o'rindiqda 4-5 ayol gapxona qurib o'tiribdi. Lekin ulardan ikkisini bu yerda deyarli har kuni, ertalabdan kechgacha "gap sobit" o'tirganini ko'rish mumkin.

Bir kuni chidolmadim, yana xafa qilib qo'ymay deb, iloji boricha yumshoqroq ohangda qiziqib so'radim: "Sizlarga odamning "havasi" keladi, uya qiladigan ishingiz yo'qdek go'yo?". "Uydami, qizlar bor (ular 10-11 yoshda), barcha yushmani qilib o'tirishadi", dedi ulardan biri mammun jilmayib.

O'ylab qolasan kishi. Ular uy yushmanlарini bajarishga qanday vaqt toparkan, qizlariga uy-ro'zg'or tutumiyu tarribini, yaxshi urf-odat va tarbiyani qachon o'rgatarkan?

Yana bir boshqasi esa uning butunlay teskarisi: kim bilandir uzoq vaqt gaplashib turganini ko'rmaysiz. Uy-ro'zg'or yushmani, farzand tarbiyasidan ortmaydi. Ayloning sarishtasi — ro'zg'orning farishtasi, deganlaridek, uyi ham risoladagidek, toza-ozoda, tartibili...

Uya tartib, tozalik bo'lsa, baraka inadi. Qadimda ota-bobolarimiz "Toza-ozoda joy - farishtali joy", deb bejiz aytishmagani. Ular chiqindisi, shamma, kul, mag'zava, soch-soqolni har joyga tashlashni bexosiyat, uvol, deb bilishgan. Aslida esa o'sha paytalar-dayoq mag'zava yoki kul ekologiyaga zarar yetka-zishini anglashgan. Shu orqali atrofdagilarni tozalikka, sarishtalikka chorlagan.

Hozir-chi? Ayniqsa, yangi qurilgan uylar atrofini ko'rib ta'bingiz xira bo'ladi. Ular uyi atrofini supurishga, eshibi osti - bo'sag'asini yuvib tozalashga hafsala qilmaydi. O'zi istiqomat qilayotgan joyni shunday saqlagan odamning uy-ro'zg'or tutumi, farzandga ibratini tasavvur qilavering.

Mashhur ingliz yozuvchi va dramaturgi Agata Kristi aytganidek, uy - bu ayolning katta bir ijodiy "asari", u ayol va uning oilasi uchun asosiy kuch va ilhom manbai bo'lishi kerak. Bu "asar" ko'zgu misoli. U qanday yashayotganinigiz, tartib-intizomingiz, nimani his qilayotganingizni aniq aks ettridi.

Haqiqiy ayol uyni ko'rkmashdan erinmaydi, u unying farrosi emas, balki bekasi bo'lishi kerak. Bunday uy, albatta, harorat, yorug'lik, xotirjamlik, baxt va quvonch baxsh etishi begumon.

Gulnora XOLDOROVA.

Keyingi kundarda yana Samarkand o'zining dabdabali, serchiqim to'ylari bilan ja-moatchilik e'tibori markazida bo'imorda. Yaqinda "Zarafshon" gazetasida chop etilgan "Samarqandda yana pul yomg'iri" sarlavhali ma-qola ham buni tasdiqlaydi. Unda xususan, milliy valyutamizni oyoq osti qilayotgan va shu yo'l bilan obro' topishga urinayotgan fuqarolarning harakatlari keskin tanqid qilingan. Afsuski, bu hammasi emas, me'yorni yo'qotgan ayrim odamlarimiz to'y uchun yangi udumlar, marosimlar o'ylab topishda davom etyapti.

Qaysi rahbar ibrat uchun to'y qiladi?



Jamiyatimiz yuzidagi bu dog'ning yanada bo'tib ko'renish berayotgani sababi nimada? Axir, o'tgan yillarda uni yo'qotish uchun ozmuncha ish qilinmadimi? Tushuntirishlar, ogohlantirishlar, jarimlar xulosa chiqarishimiz

uchun yetarli bo'lishi kerak edi-ku. Ammo bunday bo'ldimi. Nazarimda, buning sababi yuqorida-gi barcha profilaktik ishlar, hatto jazo choralar ham asosan o'tahol aholi qatlamiga qaratilganida. Shu yo'l bilan

biz ularga "boylarga ergashmang", degandek bo'ldik. Bu vaqtida "katta"lar bilganini qildi va xalq buni ko'rdi.

Jarima-chi, deysizmi? 3 yoki 4 million so'n jarima to'lash boylar uchun hech gap emas. Biz buni inobatga oldikmi, yo'q, albatta. Oqibati ma'lum, dabdabali to'ylarga qarshi kurashish tadbirlarining samarasini kamayib bormoqda. Bir necha yuz kishilik to'ylar, bir necha kun davom etadigan nahorlar va marosimlar yana bo'y ko'rsatdi.

Xulosalaram shuki, to'ylarni qanday o'tkazish bo'yicha "katta"larimiz "master-klass" ko'rsatishi kerak. Obro'li idoraning rahbari o'tkazgan kamchiqim to'ylarni elga namuna qilish lozim. Shunda ular "Falonchi boydan kam joyim bormi?", deb emas. "U insonda bor farosat menda yo'qmi?", deya to'y qiladi.

Turdi TURSUNOV.

Aks-sado

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 428 nusxada chop etildi. Buyurtma 510. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

Yonimizdag'i odamlar

MUMTOZ MUSIQAMIZ BILIMDONI



Maqom ilmini puxta egal-lagan, nozik didli ijodkor O'ktam Yahoyev 1955-yil Samarqand shahri-da tug'ilgan. Yoshlik chog'idanoq o'zbek milliy cholg'ularini ijro etishga bo'lgan qiziqishi uni 1973-yil Samarqand davlat pedagogika institutining musiqa va ashula fakulteti-ga yetakladi.

Olyighoda ustozlaridan sozan-dalik sirlarini qunt bilan o'rgandi. Talabal ichida o'z iste'dodi bilan ajralib turgan O'ktam ustozlari e'tiboriga tushdi. Ularning tavsiysi va maslahati bilan 1977-yilden o'zi o'qigan institutda o'qituvchi bo'lib ishlash boshladи. Bu yerdagi katta tajriba orttirgan O'ktam Yahoyev keyinchalik Samarqand tumanidagi 2-umumta'lim maktabida, Samarqand shahar 10-mehrionlik uyida,

Samarqand shahar 3-bolalar mu-siqa va san'at maktabida yoshlarga musiqa ilmidan saboq berdi.

U ta'lim dargohlarida yoshlarga saboq berish bilan birga o'z ustida ishlab, xalq og'zaki ijod bo'yicha bilimlarini mustahkamlab bordi. Ijodkor xalq merosiga aylangan mumtoz ashulalarga musiqa basta-

ladi. Uning repertuaridan "Oqibat" (Nodira g'azali, Fattoh Mamadaliyev musiqa), Rost maqomidan "Yod aylasa" (Navoyi g'azali), "Tanovor" (xalq musiqa), "Jonimga jono" (Jamol Kamol she'ri), "Dilrabo o'zingiz", "Qadimiy ushshoq" (Furqat g'azali, Fattoh Mamadaliyev musiqa), "Bul menga mahbub" (Faxriddin Sodiqov musiqa) kabi mohirona, maromida ijro etilgan ijod namunalari o'rin olgan.

O'ktam Yahoyev ijro uslubi vazminligi, lirkaga moyilligi, ovoz va cholg'u mutanasibligi bilan ajralib turadi. U respublika televideniyasi-ning musiqa ko'rsatuvlarida, tele-dasturlarida faol qatnashib kel-gan va uning ijrosidagi qo'shiqlar

telekanal arxivida hamda 20 ga yaqin qo'shiqlari respublika radiosining musiqa eshitirishlar redaksiyasida saqlanmoqda. San'atkor yuzlab shogirdlarning ustozи. Hozir ham ustoz-shogird an'analarini davom ettirib, ustozlaridan o'rgan-gan bilimini hamda yillar davomida orttirgan tajribasini shogirdlariga o'rgatib kelmoqda.

Bog'bonning yaratgan bog'i in-sonlar qalbiga sokinlik baxsh etgani kabi ijodkor O'ktam Yahoyev ijro etgan kuy-qo'shiqlar ham xalq qal-bini xushnud etadi.

Ismoil HUSAINOV,
Samarqand shahar
3-bolalar musiqa va san'at
maktabi direktori.

QO'SHIQ

YOXUD YURAKLARNI SEL
QILIB, KO'NGILLARNI GUL
QILIB KUYLAB O'TDI BIR HOFIZ

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, qo'shiq hasrat, nadomat, mung va qayg'u, dard-alamning, ayni vaqtida shodlik, quvonch, orzu-istiklarning, eng nafis, eng ixcham va eng ta'sirchan sadosidir. Ana shu sado olt mish yil davomida yonib-jo'shib jaranglab turdi o'zbek diyorida. Nafaqat yurtimiz, balki Markazi Osiyo, Yaqin Sharq davlatlarining baland sahnalarida, izdihom qay-nagan katta-katta maydonlarida, hatto okeanorti davlatlarida ham sevgi-muhabbat, tinchlik va do'stlik, mehnat va shodlikni tarannum etuvchi qo'shiqlari sarhadlar oshib o'tdi.

Endi esa ana shu otashqalb san'atkor, sohirnafas qo'shiqli, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev oramizda yo'q. Bunga tilim bormaydi, qalam titraydi. Amмо o'lim haq.

"Onaginam", "Birinchi mu-habbatim", "Bog'bon qizi", "Qo'llar", "Bobo dehqon" kabi yuzlab o'limas qo'shiqlar ijrachisi edi u, tom ma'noda muhabbat kuchisi edi. "Uxlasin", "Karvon ko'rdim", "Tushimda ko'rsam edi",

"Oshiqlar sardori"... Bu qo'shiqlar yurtimizning har bir go'shasida, har bir xonadonda yangrab ke-layotir. Ana shu qo'shiqlar qalblar qatiga singib ketgan axir.

Zamonamizga shukrona-lik, faxr-iftixor va quvonch ufurib turuvchi "O'zbegim", "Zamon-zamon", "Sohibqiron" kabi o'nlab taronalarni bugun xalqimizning haqiqiy ma'naviy mulkiga aylanib qoldi. Chunki uning qo'shiqlari yangraganda sanoat ishchisi dastgohi yonida

tik qotgan, dehqon ketmoniga suyanib, do'ppisini ensasiga surgan, yo'lovchi jon qulog'i bilan tinglab, qo'shiq tugaguncha to'xtab turgan.

Ha, katta san'atkor, buyuk hofiz Sherali Jo'rayevning xotirasiga har birimizning qalbimizda yashaydi, qo'shiqlari mangu jarang sochib, kelajak avlodlarini ham ezzulik, yaxshilik, mardlik va halollikka da'vat etib turadi.

O'rinboy NORMATOV,
jurnalist.

Osoyishta yurtda

ERKIN IBODAT


Diniy sohada xizmat qilayotganimga chorak asrdan oshib qoldi. Shu davr ichida yurdoshlarimga islam dinining fazilati, tarbiyavi ahamiyati to'g'risida qo'ldan kelgancha tushuncha beryapmiz. Berayotgan ilmimiz kimgadir manfaatlil bo'lsa, bizning yutug'ini imiz shu. Faoliyatim davomida turli og'ir kunlar, ta'bri joiz bo'lsa, muayyan qiyinchiliklarga ham duch keldim. O'tgan ishga salovat, deganlariday, endi bularni eslab o'tirishni lozim topmayman, zero, oqar suv oqib ketdi.

Ko'philik e'tirof etayotganidek, har bir soha o'z yo'nalishida taraqqiyotning yangi davrini boshidan kechirmoqda. Muqaddas diminim bo'lgan e'tibor ham bugun har qachongidan boshqacha. Bu masjidlar, madrasalar va muqaddas qadamjolar obodligiga turkti bo'layotir. O'sib kelayotgan farzandlarimiz tarbiyasiда soha xodimlarining o'rni beqiyos. Bu mas'uliyatni dildan his qilgan imom domlalar o'z ustida tinimsiz ishlashlari lozim.

Xalqimiz bugungi osoyishtalik soyasida erkin ibodat qilayotgan ekan, buni olib borilayotgan to'g'ri va oqilonla siyosat mevasi deb bilamiz. Shunisi aniqki, endi cho'chib, atrofga alanglab ibodat qilingan davrlar o'tdi. Shunday kunlarga yetkazgan robbimizga shukurlar qilib, bunday tinchlik va xotirjam yashash, ishslash, ibodatlar qilish ne'mati qadriga yetishimiz zarur.

Ma'murjon UZOQOV,
Samarqand shahridagi "Darg'om"
jome masjidi imom-xatibi.

ISSN-201667X



9 7 7 2 0 1 0 6 6 7 0 9

Sotuvda
narxi kelishilgan holda